

UO‘K:94(575.1):001.32(091)

**TURKISTONDA MILLIY MATBUOT, MA’NAVIY MEROS VA ILMIY-  
MADANIY MUASSASALAR FAOLIYATI (1917–1930-YILLAR)**

**НАЦИОНАЛЬНАЯ ПЕЧАТЬ, ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ  
НАУЧНО-КУЛЬТУРНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ТУРКЕСТАНЕ (1917–1930 ГГ.)**

**NATIONAL PRESS, SPIRITUAL HERITAGE AND ACTIVITIES OF  
SCIENTIFIC-CULTURAL INSTITUTIONS IN TURKESTAN (1917–1930S)**

**Maxmudov Mansurjon Abdug‘opporovich**

“University of Business and Science”

Ijtimoiy fanlar kafedrası

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asrning 20-yillarida Turkistonda milliy ziyolilar tomonidan ma’naviy merosni asrash, tarixiy-adabiy qadriyatlarni targ‘ib qilish, milliy matbuotni rivojlantirish va ilmiy-madaniy muassasalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish borasida amalga oshirilgan ishlar yoritiladi. Shuningdek, “Chig‘atoy gurungi”, milliy matbuot, kutubxonalar, muzeylar va ma’rifiy tashkilotlarning faoliyati hamda sovet mafkuraviy bosimining madaniy jarayonlarga ta’siri tahlil qilinadi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается деятельность национальной интеллигенции Туркестана в 1920-х годах по сохранению духовного наследия, развитию национальной печати, популяризации историко-литературных ценностей, а также становлению научно-культурных учреждений. Анализируется деятельность общества «Чигатой гурунги», библиотек, музеев и периодической печати, а также влияние советской идеологии на культурные процессы.

**Annotation.** This article examines the activities of the national intelligentsia in Turkestan during the 1920s aimed at preserving spiritual heritage, developing the national

press, promoting historical and literary values, and establishing scientific and cultural institutions. The study also analyzes the activities of the “Chigatoy Gurungi” society, libraries, museums, and the influence of Soviet ideology on cultural processes.

**Kalit soʻzlar.** Milliy matbuot, Chigʻatoy gurungi, maʼnaviy meros, kutubxona, muzey, ziyolilar, Turkiston, madaniyat, maorif, jadidchilik.

**Ключевые слова.** Национальная печать, Чигатой гурунги, духовное наследие, библиотека, музей, интеллигенция, Туркестан, культура, просвещение, джадидизм.

**Keywords.** National press, Chigatoy Gurungi, spiritual heritage, library, museum, intelligentsia, Turkestan, culture, education, Jadidism.

1917 yildagi siyosiy oʻzgarishlar Turkiston oʻlkasining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida keskin burilish yasadi. Sovet hokimiyati oʻrnatilgach, “yangi madaniyat” yaratish gʻoyasi ilgari surildi. Bu jarayonda eski madaniy merosga nisbatan murakkab va ziddiyatli munosabat yuzaga keldi. Bir tomondan, tarixiy yodgorliklar, qoʻlyozmalar va qadimiy obidalarni saqlash zarurligi taʼkidlangan boʻlsa, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlarni “eskilik sarqiti” sifatida baholash holatlari ham kuzatildi [1. B.23].

XX asrning 20-yillari boshlarida xalqning maʼnaviy hayotiga eng kuchli taʼsir koʻrsatadigan vositalardan biri matbuot edi. Shu bois milliy ziyolilar matbuotni milliy uygʻonishning asosiy quroli sifatida koʻrdilar. Abdurahmon Saʼdiyning “Oʻzgarish davrida oʻzbek adabiyoti” maqolasida 1921–1922 yillarda chop etilgan gazeta va jurnallar faoliyati haqida atroflicha maʼlumot berilgan [2. B.41]. Muallif “Inqilob”, “Bilim oʻchogʻi”, “Mushtum”, “Turkiston”, “Zarafshon”, “Fargʻona” singari matbuot nashrlarini oʻzbek adabiy va ilmiy muhitining shakllanishida muhim oʻrin tutganini taʼkidlaydi. “Inqilob” jurnalining tashkil etilishi yosh ilmiy va adabiy kuchlarni bir markaz atrofida birlashtirish imkonini yaratdi. “Bilim oʻchogʻi” jurnali esa maʼrifiy ruhdagi maqolalari bilan xalq orasida ilm-fanga qiziqishni oshirishga xizmat qildi [3. B.52]. “Mushtum” jurnali hajviyot orqali jamiyatdagi illatlarni tanqid ostiga ola boshladi. Bu esa milliy matbuotning nafaqat axborot vositasi, balki ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi kuchga aylanganidan dalolat beradi.

Abdulhamid Cho‘lpon milliy matbuotning rivojlanishidagi kamchiliklarni ochiq tanqid qilgan edi. Uning “Katta kamchiligimiz” maqolasida haftalik va oylik jurnallarning muntazam chiqmayotgani, moddiy mablag‘ yetishmasligi milliy matbuotning asosiy muammolaridan biri sifatida ko‘rsatildi [4. B.18]. Ayniqsa, “Tong”, “Sharq”, “Bilim o‘chog‘i” kabi jurnallarning qisqa muddat faoliyat yuritib yopilib ketgani ziyolilarni tashvishga solgan edi. Milliy ziyolilar o‘z faoliyatida faqat matbuot bilan cheklanib qolmadilar. Ular xalqning tarixiy xotirasini tiklash, ma’naviy merosini asrab-avaylash va ilmiy asosda o‘rganishga katta e’tibor qaratdilar. Ayniqsa, Abdurauf Fitrat boshchiligida tashkil etilgan “Chig‘atoy gurungi” jamiyati bu borada alohida ahamiyat kasb etdi [5. B.64].

1918 yil oxirlarida tashkil etilgan ushbu jamiyatning asosiy maqsadi turkiy tilni boyitish, tarixiy-adabiy manbalarni yig‘ish va milliy adabiyotni rivojlantirish edi [6. B.37]. Sovet davri adabiyotlarida uzoq yillar davomida “aksilinqilobchi tashkilot” sifatida talqin etilgan “Chig‘atoy gurungi” aslida o‘zbek tili, adabiyoti va milliy madaniyat ravnaqi uchun xizmat qilgan ma’rifiy uyushma edi. Jamiyat a’zolari orasida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Elbek, G‘ozi Olim Yunusov, Shorasul Zunnun kabi taniqli ziyolilar bor edi. Ular til, imlo, adabiyot, san’at va teatr masalalarini ilmiy asosda o‘rganishga kirishdilar [7. B.44]. “Til va imlo to‘dasi”, “Adabiyot to‘dasi”, “San’at va teatr to‘dasi” kabi sho‘balarning tashkil etilishi milliy ilm-fanning tizimli shakllanishiga xizmat qildi. Abdurauf Fitratning “Tilimiz” maqolasi ushbu harakatning dasturiy asari sifatida maydonga chiqdi. Unda o‘zbek tilining boyligi, tarixiy ildizlari va imkoniyatlari keng tahlil qilinadi [8. B.73]. Fitrat turk tilining boyligini ko‘rsatish orqali milliy o‘zlikni saqlash masalasini ilgari surdi. U arab va fors tillari ta’sirida zaiflashayotgan milliy tilni tiklash zarurligini ta’kidladi.

1919 yilda “Chig‘atoy gurungi” tashabbusi bilan yangi alifbo va imlo masalalari muhokama qilindi. O‘sha yili “Ishtirokiyun” gazetasida “Birinchi ona tili kursi” ochilishi haqida e’lon berildi [9. B.29]. Ushbu kurslarda Fitrat, Shokirjon Rahimiy va Abdulqayum Ramazoniy kabi ziyolilar dars berganlar. Bu hol milliy kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy yondashilganini ko‘rsatadi. 1921 yil yanvar oyida tashkil etilgan til va imlo qurultoyida

“Chig‘atoy gurungi” tomonidan ishlab chiqilgan imlo qoidalari muhokama qilinib, amaliyotga joriy etildi [10. B.91]. Bu esa milliy tilni ilmiy asosda rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Milliy ziyolilar tarixiy shaxslar va mutafakkirlar merosini o‘rganishga ham katta e‘tibor berdilar. Abdurahmon Sa‘diy “Yassaviy kim edi?”, “Imom G‘azzoliy”, “Forobiy” kabi maqolalari orqali Sharq mutafakkirlarining ilmiy va ma‘naviy merosini xalq orasida targ‘ib qildi [11. B.56]. Ayniqsa, Ahmad Yassaviyning turkiy adabiyot va tasavvuf tarixidagi o‘rni xolisona baholandi. Cho‘lponning “Besh yuz yil” maqolasi esa Alisher Navoiy merosiga bag‘ishlangan ilk jiddiy chiqishlardan biri edi [12. B.48]. Unda Navoiy yubileyini keng nishonlash zarurligi ta’kidlandi. Cho‘lpon xalqni o‘z buyuk ajdodlari bilan faxrlanishga undadi.

XX asrning 20-yillarida kutubxonalar faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etdi. 1914 yilda tashkil etilgan “Turon” kutubxonasi sovet davrida ham faoliyatini davom ettirdi [13. B.67]. Kutubxonada Sharqning nodir qo‘lyozmalari, gazeta va jurnallar saqlangan bo‘lib, u milliy ma‘naviyat markaziga aylangan edi.

1919 yilda kutubxona Ramazon oyida Shayxontohur sayilgohiga ko‘chirilib, tungi vaqtda ham xizmat ko‘rsatgan [14. B.14]. 1922 yilda kutubxonadan foydalanuvchilar soni 7000 nafarga yetgan. Bu esa xalq orasida kitobxonlik madaniyati ancha rivojlanganidan dalolat beradi. 1922 yilda Toshkentning Eski shahrida Turkiston Davlat kutubxonasining Sharq sho‘basi ochildi [15. B.26]. Unda arab, fors, turk va tatar tillaridagi kitoblar saqlangan bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi kitoblar soni kam edi. Bu esa milliy adabiyotlarni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatardi. Muzeylar faoliyati ham ushbu davrda shakllana boshladi. 1919 yilda Toshkentda Turkiston xalq muzeyi tashkil qilindi [16. B.33]. Keyinchalik Samarqand, Namangan va Farg‘onada ham o‘lkashunoslik muzeylari ochildi. Ushbu muzeylar orqali Turkiston xalqlarining turmush tarzi, urf-odatlar va tarixiga oid eksponatlar yig‘ildi. Biroq sovet mafkurasi ushbu muassasalar faoliyatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ko‘plab ekspozitsiyalarda mahalliy xalq “savodsiz” va “madaniyatsiz” tarzda tasvirlanib, sovet hokimiyati “madaniyat olib kiruvchi kuch” sifatida talqin qilina boshlandi [17. B.77]. Milliy ziyolilar madrasalar masalasiga ham befarq bo‘lmaganlar. “Namanganda madrasa islohoti” maqolasida madrasalarning iqtisodiy va ma‘naviy

inqirozga yuz tutgani qayd etiladi [18. B.39]. Sovet hokimiyati tomonidan vaqf mulklarining davlat tasarrufiga olinishi madrasalarning moliyaviy asosini yemirib yubordi. Shunga qaramay, ziyolilar xalqning ma'naviy xotirasini saqlash yo'lida faol kurash olib bordilar. O'tmish allomalari, mumtoz adabiyot va tarixiy merosni targ'ib qilish orqali ular milliy o'zlikni saqlab qolishga intildilar.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 20-yillarida Turkistonda milliy ziyolilar tomonidan ma'naviy merosni asrash, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish yo'lida muhim ishlar amalga oshirildi. Sovet mafkuraviy bosimiga qaramay, milliy matbuot, "Chig'atoy gurungi", kutubxonalar, muzeylar va ilmiy-ma'rifiy tashkilotlar faoliyati orqali xalqning tarixiy xotirasi saqlab qolinishiga xizmat qilindi. Ayniqsa, milliy til, adabiyot va tarixni o'rganish borasidagi sa'y-harakatlar keyingi davrlardagi ilmiy-madaniy taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
2. Sa'diy A. O'zgarish davrida o'zbek adabiyoti // Inqilob jurnali. – 1922.
3. Cho'lpon A. Adabiyot nadir. – Toshkent, 1994.
4. Cho'lpon A. Katta kamchiligimiz // Turkiston gazetasi. – 1924.
5. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish. – Toshkent: Sharq, 2002.
7. Yunusov G'. O'zbeklarda el tanish ishi // Bilim o'chog'i. – 1923.
8. Fitrat A. Tilimiz // Tong jurnali. – 1919.
9. Ishtirokiyun gazetasi. – 1919 yil 11 may soni.
10. Rajabov Q. Jadidlar va milliy matbuot. – Toshkent, 2005.
11. Sa'diy A. Yassaviy kim edi? // Inqilob jurnali. – 1922.
12. Cho'lpon A. Besh yuz yil // Maorif va o'qituvchi. – 1924.
13. Alimuhamedov J. O'zbekistonda kutubxonachilik tarixi. – Toshkent, 1974.
14. Ishtirokiyun gazetasi. – 1919 yil iyun soni.
15. Qizil bayroq gazetasi. – 1922 yil yanvar soni.

16. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. – Toshkent, 2003.
17. Ahmedov B. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent, 1991.
18. Turkiston gazetasi. – 1923 yil sonlari.